

“TASDIQLAYMAN”
 Boshqaruv raisining
 ijtimoiy masalalar
 bo'yicha o'rinbosari v.v.b.

A.E. Saipov

2026-yil “ ” – fevral

**“Maxam-Chirchiq” AJda bayramlarning g‘oyaviy-ma’naviy mazmunini yanada kuchaytirish
 va ommalashtirish konsepsiyasini samarali amalga oshirish bo‘yicha
 CHORA-TADBIRLAR DASTURI**

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Amalga oshirish muddatlari	Mas’ul ijrochilar
I. Umumxalq bayramlarining g‘oyaviy-ma’naviy mazmunini yanada kuchaytirish va ommalashtirish				
1.	Har bir umumxalq bayramining o‘ziga xosligini inobatga olgan holda ishchi-xodimlarni jamiyat taraqqiyoti va mushtarak ezgu maqsadlar yo‘lida birlashtiruvchi umumxalq bayramlarining ta’sirchan va jozibador musiqiy atributlari, o‘ziga xos taronalari, o‘yinchoq va turli bezaklarini ishlab chiqish.	Tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar	2026-yil yanvardan, doimiy	Boshqaruv raisi maslahatchilari, Kasaba uyushma qo‘mitasi
2.	Umumxalq bayramlarining tub mazmun-mohiyati va ularning xalqimiz milliy an’ana va qadriyatlarini saqlash va targ‘ib qilishdagi ahamiyatini ochib berish maqsadida har bir umumxalq bayrami uchun alohida ta’sirchan g‘oyaviy mavzular va tezislarni shakllantirish va ommalashtirish.	G‘oyaviy mavzular, tezislar	2026-yil yanvardan, umumxalq bayramlari arafasida	Boshqaruv raisi maslahatchilari, Kasaba uyushma qo‘mitasi

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Amalga oshirish muddatlari	Mas'ul ijrochilar
3.	Korxona mehnat jamoasi o'rtasida hamjihatlik, ijtimoiy birdamlik va bag'rikenglik tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan umumxalq bayramlarining g'oyaviy-ma'naviy, tarixiy jihatlarini aks ettiruvchi ommaviy-madaniy tadbirlar, tomoshalar va ko'rgazmalar tashkil etish.	Targ'ibot tadbirlari	Umumxalq bayramlari arafasida	Boshqaruv raisi maslahatchilari, Kasaba uyushma qo'mitasi, Sexlar va bo'limlar rahbarlari
4.	Har bir umumxalq bayramining g'oyaviy-ma'naviy mazmuni, tarixiy shakllanishi va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini ochib beruvchi qo'llanmalar tayyorlash va keng tarqatish.	Qo'llanmalar	2026-yil yanvardan, doimiy	Boshqaruv raisi maslahatchilari, Kasaba uyushma qo'mitasi
5.	Umumxalq bayramlari arafasida korxona Markaziy maydoni, Kimyogarlarning xiyoboni va saroyi, shuningdek, har bir sexlar va bo'limlarni tegishli bayram shukuhini beruvchi belgilar, shu jumladan, ularning ramzlari va atributlari bilan bezatish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Umumxalq bayramlari arafasida	Boshqaruv raisi maslahatchilari, Kasaba uyushma qo'mitasi, Sexlar va bo'limlar rahbarlari
6.	Madaniy o'ziga xoslikni ifodalaydigan va umumxalq bayramlarini talqin qilish hamda nishonlashning turli usullarini namoyish etish imkonini beradigan san'at va madaniyat ko'rgazmalari, rassomlik tanlovlarini tashkil qilish.	Tanlovlar	Umumxalq bayramlari arafasida	Kimyogarlarning madaniyat saroyi
7.	Ishchi-xodimlarga bayram shukuhini yetkazish, ularda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini yanada kuchaytirish maqsadida sexlar va bo'limlarda bayram burchaklarini tashkil qilish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Umumxalq bayramlari arafasida	Boshqaruv raisi maslahatchilari, Kasaba uyushma qo'mitasi, Sexlar va bo'limlar rahbarlari
8.	Umumxalq bayramlari munosabati bilan bayram mazmuniga mos sport musobaqalari va ijodiy bellashuvlar o'tkazish.	Sport musobaqalari, ijodiy bellashuvlar	2026-yil yanvardan, doimiy	Boshqaruv raisi maslahatchilari, Kasaba uyushma qo'mitasi, Sexlar va bo'limlar rahbarlari

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Amalga oshirish muddatlari	Mas'ul ijrochilar
9.	Umumxalq bayramlarini mehnat jamoasida keng ko'lamda nishonlash bo'yicha ssenariylar ishlab chiqish, bunda bayramlarni ko'tarinki ruhda o'tkazish maqsadida bayram tantanalariga taniqli san'at va madaniyat namoyandalarini keng jalb etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Umumxalq bayramlari arafasida	Kimyogarlar madaniyat saroyi
10.	Sexlar va bo'limlarda bayramona va ko'tarinki kayfiyat baxsh etish maqsadida turli ko'ngilochar tadbirlar tashkil qilish, hududlarni bayramona bezatish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Umumxalq bayramlari arafasida	Boshqaruv raisi maslahatchilari, Kasaba uyushma qo'mitasi, Sexlar va bo'limlar rahbarlari
11.	Kimyogarlar madaniyat saroyida umumxalq bayramlari munosabati bilan konsert va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlar, badiiy kechalar uyushtirish.	Konsert va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlar, badiiy kechalar	Umumxalq bayramlari arafasida	Kimyogarlar madaniyat saroyi
12.	Umumxalq bayramlari bilan bog'liq bo'lgan boy madaniy meros va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni saqlash va targ'ib qilish maqsadida umumxalq bayramlari arafasida respublika bo'ylab oilaviy va jamoaviy sayohatlarni tashkil qilishni rag'batlantirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Umumxalq bayramlari arafasida	Kasaba uyushma qo'mitasi
13.	Umumxalq bayramlarining mazmun-mohiyatini, ularning mamlakatimizning o'ziga xosligini shakllantirishdagi o'rnini targ'ib qiluvchi maxsus ijtimoiy videoroliklar tayyorlash hamda ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish.	Ijtimoiy videoroliklar	Umumxalq bayramlari arafasida	Axborot xizmati

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Amalga oshirish muddatlari	Mas'ul ijrochilar
14.	Umumxalq bayramlari bilan bog'liq madaniy urf-odatlar va marosimlarni saqlab qolish, ularning kelajak avlodlarga yetkazilishini aks ettiruvchi va bayramona kayfiyat beruvchi ko'rgazmali materiallarni tashqi reklama bannerlari va monitorga joylashtirish.	Tashkiliy chora-tadbirlari	2026-yil yanvardan, bayramlar arafasida	Ijtimoiy rivojlanish bo'limi
II. Muhim sanalarning g'oyaviy-ma'naviy mazmunini kuchaytirish va ommalashtirish				
15.	Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan "Do'stlik" festivalini o'tkazish.	Festival	2026-yildan boshlab doimiy	Boshqaruv raisi maslahatchilari, Kasaba uyushma qo'mitasi, Sexlar va bo'limlar rahbarlari
16.	Davlat ramzlari va davlat tili kuni munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy bayram tadbirlarini o'tkazish.	Kompleks chora-tadbirlar	2026-yil yanvardan, muhim sanalar arafasida	Boshqaruv raisi maslahatchilari, Kasaba uyushma qo'mitasi, Sexlar va bo'limlar rahbarlari
17.	"Muqaddasdir Vatan bayrog'i", "Gerbim – faxrim", "Olamni mahliyo aylagan diyor!", "Milliy g'ururim – Madhiyam!", "O'zbek tili – milliy davlatchiligimiz timsoli" shiorlari ostida ishchi-xizmatchilarda birdamlik, vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirishga qaratilgan seminarlar, davra suhbatlari, badiiy kechalar tashkil qilish.	Seminarlar, davra suhbatlari, badiiy kechalar	2026-yil yanvardan, muhim sanalar arafasida	Boshqaruv raisi maslahatchilari, Kasaba uyushma qo'mitasi, Sexlar va bo'limlar rahbarlari
18.	Buyuk siymolar, jamoat va davlat arboblari tavallud topgan kunlar, davlat ramzlari, davlat tili va boshqa muhim sanalar bilan bog'liq ta'sirchan g'oyaviy tezislar, shiorlarni shakllantirish, ularning jozibador ramzlari, atributlari va zaruratga ko'ra musiqiy atributlari, o'ziga xos taronalarini ishlab chiqish.	Tashkiliy va amaliy chora tadbirlar	2026-yil yanvar-may	Boshqaruv raisi maslahatchilari, Kasaba uyushma qo'mitasi, Sexlar va bo'limlar rahbarlari

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Amalga oshirish muddatlari	Mas'ul ijrochilar
19.	Korxonada muhim sanalarga bag'ishlangan adabiy-badiiy tadbirlar, kechalar, davra suhbatlari, ijodiy uchrashuvlar tashkil etish.	Adabiy-badiiy tadbirlar, kechalar, davra suhbatlari, ijodiy uchrashuv	Muhim sanalar arafasida	Boshqaruv raisi maslahatchilari, Kasaba uyushma qo'mitasi, Sexlar va bo'limlar rahbarlari
20.	Atoqli shaxslarning diqqatga sazovor asarlaridagi sahnalar yoki qahramonlar asosida dramatik talqinlar yoki teatrlashtirilgan tomoshalar tashkil qilish.	Kompleks chora-tadbirlar	2026-yil fevraldan, muhim sanalar arafasida	Boshqaruv raisi maslahatchilari, Kasaba uyushma qo'mitasi, Sexlar va bo'limlar rahbarlari
III. Kasb bayramining g'oyaviy-ma'naviy mazmunini kuchaytirish va ommalashtirish				
21.	Kimyogarlik kasbining jamiyatda tutgan o'rnini va ahamiyatini ochib beruvchi va yosh avlodni kasblarga qiziqishini yanada yuksaltirish hamda eng yaxshi kasbiy an'analarni targ'ib qilishga qaratilgan kasblarning ta'sirchan va jozibador musiqiy atributlari, o'ziga xos taronalari, belgi va nishonlari, g'oyaviy-ma'naviy mavzulari va tezislari ishlab chiqish.	Kompleks chora-tadbirlar	2026-yildan boshlab doimiy	Boshqaruv raisi maslahatchilari, Kasaba uyushma qo'mitasi,
22.	Keng jamoatchilikka kasb haqida batafsil ma'lumot berish maqsadida kasbga oid munozaralar, intervyular yoki hikoyalarni o'z ichiga olgan maxsus podkastlar tashkil qilish.	Podkastlar	2026-yil yanvardan, kasb bayramlari arafasida	Axborot xizmati
23.	Yoshlarning kasblarga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish maqsadida kasb fidoyilarini jalb qilgan holda mahorat darslari, seminarlar, davra suhbatlari, ijodiy va badiiy kechalar tashkil qilish.	Mahorat darslari, seminarlar, davra suhbatlari, ijodiy kechalar	Kasb bayramlari arafasida	Kadrlar boshqarmasi

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Amalga oshirish muddatlari	Mas'ul ijrochilar
24.	Kasbga sadoqat orqali Vatanga sidqidildan xizmat qilish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish haqida ijtimoiy videoroliklar tayyorlash.	Ijtimoiy videoroliklar	Kasb bayramlari arafasida	Axborot xizmati
25.	"Rahbar va yoshlar" mavzusida turli ko'rinishdagi uchrashuvlar, ochiq muloqotlar tashkil qilish.	Uchrashuvlar, ochiq muloqotlar	Kasb bayramlari arafasida	Yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi
IV. Xalqaro kunlarning g'oyaviy-ma'naviy mazmunini kuchaytirish va ommalashtirish				
26.	Xalqaro kunlarning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyatini O'zbekiston xalqining an'anaviy qadriyatlariga xos va mos tarzda ochib beruvchi g'oyaviy-ma'naviy mavzulari va tezislari ishlab chiqish.	Kompleks chora-tadbirlar	2026-yil yanvardan, xalqaro kunlar arafasida	Boshqaruv raisi maslahatchilari, Kasaba uyushma qo'mitasi,
27.	Xalqaro kunlar doirasida seminarlar, davra suhbatlari, ochiq muloqotlar tashkil qilish.	Seminarlar, davra suhbatlari, ochiq muloqotlar	2026-yil yanvardan, xalqaro kunlar arafasida	Boshqaruv raisi maslahatchilari, Kasaba uyushma qo'mitasi,
28.	Xalqaro kunlar bilan bog'liq mavzular doirasida ijtimoiy videoroliklar tayyorlash va ommalashtirish.	Ijtimoiy videoroliklar	Xalqaro kunlar arafasida	Axborot xizmati

Boshqaruv raisining maslahatchisi

I.S. Kurbanaliyev